

O`QUVCHILARDA OMMAVIY MADANIYAT NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. INTELLEKTUAL MADANIYAT

Ibragemova Umida Xurramovna

*Samarqand viloyat Pastdarg`om tumanida joylashgan
47-maktabning Boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

Annotasiya

Ushbu maqolada ommaviy madaniyat haqida tushuncha berilgan. Ommaviy madaniytaning ko`rinishlari va uning salbiy va ijobiy oqibatlari to`g`risida fikr yuritilgan. O`quvchilarda ommaviy madaniyatga qarshi tura oladigan intellectual madaniyatni singdirish vositalari, amaliy harakatlar tahlil qilingan. O`quvchilarda intellectual madaniyatni shakllantrishning muhimligi asoslab berilgan. Har bir oladigan axborot, bilim va ko`nikmaning filtr qilib beruvchi vositasi sifatida intellectual madaniyat ko`riladi.

Kalit so`zlar: ommaviy madaniyat, ma`naviyatsizlik, intellectual madaniyat, g`oya, jamiyat, axloq.

Madaniyat haqida so‘z yuritsak. Har bir tushunchaga sinchkovlik bilan ta’rif berib o‘tishimiz kerak. O‘z davrida fransuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma’nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi”-deb yozgan edi [1:4].

Madaniyat atamasiga avvalda 7 ta ta’rif mavjud bo‘lgan bo‘lsa hozirda bunday ta’riflar 500 tadan ortiqni tashkil etadi. “O‘zbek tilida “madaniyat” atamasi arabcha “madina”-“shaharlik” degan ma’noni bildiradi. “Madaniyat” va “Kultur” atamalari mutaxassislar fikriga ko‘ra aynan mazmunan bir ma’noni anglatib, lotincha “ishlov berish”, “parvarish qilish”, “ekib o’stirish”ni ifoda etadi” [2:10-11]. Madaniyat zamonaviylashish xususiyatiga egaligi uchun ham har jamiyatda va har davrda o‘zining harakterini o‘zgartirmagan holda shaklini almashtirib boradi. Masalan, Alisher Navoiy davridagi so‘zlashish madaniyati hozirda ham mavjud bo‘lib faqat shaklan farq qilmoqda.

G‘arbda milliy qadriyat va an’analar siqib chiqarilib, yosh avlod qalbi va ongiga g‘ayriinsoniy g‘oyalari singdirilmoqda. Buning oqibatida G‘arb mamlakatlarida “ommaviy madaniyat” tushunchasi yuzaga keldi. U g‘arb dunyosida o’tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandı. Garchi “madaniyat” deb atalsada, aslida, mazmun-mohiyatiga, niyatmaqsadiga ko‘ra, “ommaviy madaniyat” haqiqiy madaniyatning kushandası. “Ommaviy madaniyat” ko‘pdanko‘p shakllarda o‘zini namoyon etadi. Masalan, “kitch”— zarracha badiiyestetik qimmatga ega bo‘lmagan narsa va

buyumlarga yuksak andoza tusini berish. “Komiks” – tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa-rasm mahsulotlari. “Starizm” – sub’ektiv ehtiroslarga berilgan holda estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, teleboshlovchilarni ko‘kka ko‘tarish. “Xeppining”-nogahon uyushtiriladigan “keskin” tomoshalar, masalan, pianino yoki avtomobilarni urib, abjag‘ini chiqarish yohud o‘t qo‘yib vahshiyona, ommaviy “ko‘ngil ochish”larni o‘tkazish. Ushbular “ommaviy madaniyat”ning ayrim ko‘rinishlari, xolos.

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti va tanazzulining sabab oqibatlarini , uning ertangi kuni qanday bo‘lishi mumkinligini prognoz qilishimiz uchun bugungi kundagi faoliyatini aniqlashimiz zarurdir. Shu va shunga o‘xhash muammolarning yechimini topish esa falsafiy va axloqiy tarbiya fanlar tizimining hozirgi kundagi vazifasidir. Jamiyatning bugungi kundagi muammolari sifatida iqtisodiy yoki moliyaviy tanglikdan ko‘ra, kishilarning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy begonalshuvlari, ularning jamiyat qonun qoidalaridan yiroqlashuvi tanazzulning birlamchi atributi sifatida ko‘riladi. Axloqiy tanglikning kelib chiqishi nafaqat ma’lum bir jamoa, jamiyat yoki davlat miqiyosida bo‘libgina qolmay balki butun boshli insoniyat uchun ham global muammo sanaladi. Chunki hozirgi globallashuv jarayonida o‘ta yuqumli virus kabi harakatlanib borayotgan “ommaviy madaniyat”har bir xalq, elat, va jamiyat uchun muhim muammo sanaladi. Shunday ekan mazkur muammolarning ko‘lamini, kelib chiqish sabablarini puxta o‘rganish va bu kuzatuvlar asosida to‘plangan bilmlar orqali mazkur ko‘ngilni xira qiluvchi holatlarni oldini olmog‘imiz, xato va kamchiliklarni bartaraf etmog‘imiz lozim.

Ta’lim tizimi o‘quvchilarning intellektini shakllantirish va rivojlantirish kabi vazifalarni ham bajarishga qodir bo‘lishi muhim. Ma’lum bir shaxs intellektual fikrlash salohiyatiga ega bo‘lishi uchun ijtimoiylashuv bosqichidan o‘tishi ya’ni, u yoshlikdan ijtimoiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etishi kerak. Kishiga berilgan aql uning ijodkorligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan qarasak, aqlni boshqarish ham ma’lum tizginlarga ega. Kishilarning ratsional tafakkuri ma’lum bir yo‘nalishga qaratilmas ekan, uning jamiyat hayoti uchun hech qanday foyda bermasligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababdan ham jamiyat a’zolarining intellektual madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. A’zi bir manbalarda “intellektual madaniyat” aqliy mehnat egalarini yuksak bilim va tajribasini anglatadi deb qaralsa, boshqa manbalarda esa intellektual madaniyat ijodkorlikning ratsional shakli ekanligi haqida muhim qarashlar ilgari suriladi. Yana bir manbada esa “intellektual madaniyat” tushunchasi faqat aqliy mehnat egalarining o‘z bilim va tajribasidan oqilona foydalanish darajasi, hamda ularning davomiyligini ta’minlash, shu bilan birga ijodiy tafakkurning o‘ziga xos shaklini ifodalashi alohida qayd etib o‘tiladi .

Intellektual salohiyatga ega odamlar deb ko‘pincha o‘qimishli kishilarni tushunamiz. Ya’ni intellektuallik bu oqil, ma’lumotga ega, ma’nан yetuk, alqn

rivojlangan aholi qatlami, asosiy ish tartibi aqliy-ijodiy mehnatga yo‘naltirilgan insonlarning ijtimoiy qatlami yoki guruhiga nisbatan ishlatiluvchi tushuncha deb ham qaraladi. I. B. Siddiqovning fikricha, “Intelektual madaniyat tushunchasi mazmunini, mohiyatini yoritishdagi yagona ob’ektiv yondashuv – bu uni ilmiy tadqiq etishdir, binobarin, bunday qilinganda har bir bosqich mauayyan tavsif berish bilan yakunlanadi, ammo ilmiy-falsafiy adabiyotlarda uning umumiyligi mohiyatini aks ettiruvchi ta’riflar kam. Shaxs intellektual madaniyatini uning aqliy qobiliyatiga asoslangan gnoseologik faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash, intellektual qadriyatlar yaratish malakalari, bilish manbalari hamda informasion-texnikaviy vositalar bilan ishlay olish qobiliyatidir”.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, inson ahloqiy sifatlarini falsafiy taxlil qilar ekanmiz uning ahloqiy qarashlari shaxsiy islohot sari undashiga guvoh bo`lamiz. Ikki kuni bir xil o`tgan inson yutqazadi. Olam rivojlangani sari inson ham rivojlanadi. Muhimi bu rivojlanish insonni tanazzulga boshlamasligi kerak. Inson ikki olam maxluqotlarining gultojidir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo`q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o`zi pok nurdan yaratilgan. Faqatgina insondagina rivojlanish, kamol topish quvvati bor. Bu quvvat undagi ahloqiy imunitetdan darak beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Negmatova Sh “Globallashuv asoslari”. –Samarqand:. SamDU nashri, 2015.- 144 b
2. Normatov K, Alimov Sh Q, Ernazarov R.U va boshqalar.“Madaniyatshunoslik” – T.: O‘zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2017-282 b